



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

**So'zlarni tanib olish va so'z
ma'nolarini matn mazmuniga
integratsiya qilish ko'nikmalarini
rivojlantirish
(PIRLS tadqiqoti misolida)**

Avazjon Shakirov, Xalqaro dasturlar va reytinglardagi
ko'rsatkichlar tahlili bo'limi yetakchi mutaxassisi.

REJA:

01

O'quvchilarda so'zlarni tanib olish ko'nikmalarini rivojlantirish

02

So'z ma'nolarini matn mazmuniga integratsiya qilish

03

O'qib tushunish strategiyalari

04

O'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi

PIRLSda ikki asosiy turdagi matnlardan foydalaniladi

Bularga:

Badiiy tajriba orttirish

1

Hikoya va ertaklar, voqealar ketma-ketligiga asoslangan matnlar, qahramonlar va ularning his-tuyg'ulari orqali qurilgan matnlardir.

Axborot olish va undan foydalanish

2

Tabiat, fan, texnologiya, kundalik hayot bilan bog'liq mavzularda bo'ladi.

Bu turdagi matnlarda o'quvchidan: so'zlarni aniq tanib olish, yangi so'z ma'nosini kontekst orqali tushunish, ma'lumotlarni o'zaro bog'lay olish talab etiladi.

PIRLS kognitiv tizimi

01

Aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratish va ularni ajratib olish

👉 **O'quvchi** matndan aniq aytilgan faktni, qahramon, joy, vaqt, hodisani topib oladi.

02

To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish

👉 **O'quvchi** matnda ochiq yozilmagan, lekin mantiqan anglash mumkin bo'lgan ma'noni tushunadi

03

G'oya va ma'lumotlarni talqin qilish hamda ularni uyg'unlashtirish

👉 **O'quvchi** matn qismlarini o'zaro bog'laydi, asosiy g'oyani tushunadi, voqealar orasidagi sabab-oqibatni anglaydi.

04

Matn mazmuni va elementlarini baholash hamda tanqidiy tahlil qilish

👉 **O'quvchi** matnga o'z fikrini bildiradi, muallif pozitsiyasini baholaydi, matn uslubi yoki tuzilishiga e'tibor beradi.


O'quvchilarda so'zlarni tanib olish ko'nikmalarini rivojlantirish

So'zlarni tanib olish — bu o'quvchining matndagi so'zlarni: **tez, xatosiz, ortiqcha kuch sarflamasdan o'qiy olishidir.**

Agar bola so'zni o'qishda qiynalsa, uning butun e'tibori harflarni birlashtirishga ketadi. Natijada matn mazmunini tushunishga kuch qolmaydi.

Oddiy qilib aytganda:

☞ so'zlarni o'qish qanchalik avtomatik bo'lsa, tushunish shunchalik oson bo'ladi.



Misol:

agar bola “yomg’ir” so’zini o’qishda qiynalsa, u yomg’ir haqida berilgan fikrni tushunishga ulgurmaydi.

PIRLS tahlillariga murojaat

01

soʻzlarni ravon
oʻqiydigan
oʻquvchilar oʻrtacha
80–120 ball yuqori
natija koʻrsatadi.



02

soʻzlarni tanishda
qiynalayotgan
oʻquvchilarning
60% dan ortigʻi
matnning asosiy
gʻoyasini topa
olmaydi.



03

yuqori natijali
mamlakatlarda
boshlangʻich
sinfdayoq oʻquvchi-
larning **70–75%**
soʻzlarni avtomatik
oʻqish darajasiga
yetadi.



* Bu raqamlar shuni koʻrsatadiki, soʻzlarni tanib olish — oʻqish savodxonligining poydevori hisoblanadi.

Soʻzlarni tanib olishga taʼsir qiluvchi omillar

Harf va tovush bogʻlanishini yaxshi bilgan oʻquvchilar matnni tushunishda **30–35%** ustunlikka ega;

Fonematik eshitish sust boʻlgan bolalarda oʻqishdagi xatolar **ikki baravar koʻp** uchraydi

Vizual soʻz xotirasi kuchli boʻlgan oʻquvchilar **tezlik** va **aniqlikni** bir vaqtda saqlay oladi

1

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki,

2

bu bosqichni eʼtiborsiz qoldirish keyingi barcha bosqichlarga salbiy

3

taʼsir qiladi.

Soʻz maʼnolarini matn mazmuniga integratsiya qilish

Soʻz maʼnosini integratsiya qilish — bu soʻzni alohida emas, balki gap, paragraf, butun matn doirasida tushunishdir.

Bu yerda bola faqat lugʻatni emas, balki, mantiqiy bogʻlanishni, sabab–oqibatni, yashirin maʼnoni anglay olishi kerak boʻladi.

Masalan, “**yengil**” soʻzi: vaznga nisbatan ham, his-tuygʻuga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Bola aynan qaysi maʼno nazarda tutilganini tushunishi kerak.

PIRLS tahlillariga murojaat

01

Integratsiya ko'nikmasi yaxshi rivojlangan o'quvchilar murakkab topshiriqlarda **2–2,5 baravar ko'proq to'g'ri javob** beradi


02

Past natijali o'quvchilarning yarmidan ko'pi so'z ma'nosini faqat **lug'at darajasida** tushunadi

03

Yuqori natija ko'rsatgan mamlakatlarda o'quvchilarning **60% ga** yaqini ko'p ma'noli so'zlarni vaziyatga mos talqin qila oladi

Bu bosqich o'qish savodxonligining sifat darajasini belgilaydi.



O'qib tushunish strategiyalari



PIRLS tahlillariga murojaat

Strategiyalardan muntazam foydalanuvchi o'quvchilar **40–60 ball** yuqori natija ko'rsatadi

O'z-o'zini nazorat qiladigan o'quvchilar xatolarni **35–40%** tezroq aniqlaydi

Strategiyasiz o'qiydigan o'quvchilar murakkab savollarda ko'pincha tasodifiy javob beradi

Demak, strategiyalar — bu natijani barqaror qiluvchi asosiy vosita.

01

02

03



O'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi

Motivatsiya o'quvchining

o'qish jarayonida davomiyligini

matnni chuqur tushunishini

mustaqil o'qish odatini shakllantiradi

Motivatsiyaning asosiy turlari

Ichki motivatsiya

(Qiziqish, zavq, bilim olish istagi)

Tashqi motivatsiya

(Rag'bat, baho, o'qituvchi va ota-onaning
qo'llab-quvvatlashi)

* **O'qishga bo'lgan motivatsiya** — o'quvchining matnni o'qishga qiziqishi, ichki ehtiyoji va faol ishtirok etish istagiga aytiladi. Xalqaro tadqiqotlar (jumladan, **PIRLS**) o'qishga yuqori motivatsiyaga ega o'quvchilar yaxshiroq natija ko'rsatishini tasdiqlaydi.

PIRLS tahlillariga murojaat

01

O'qishni yoqtiradigan o'quvchilarning ballari **90–110 ball** yuqori bo'ladi

02

Yuqori motivatsiyaga ega o'quvchilarning **70% dan** ortig'i muntazam o'qiydi

03

Past motivatsiyali o'quvchilar matn bilan ishlashga **30–40% kam** vaqt ajratadi

O'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirish yo'llari



Matnlar tanlovi

01

Qiziqarli va yoshga mos matnlar tanlash orqali o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish



Tanlov imkoniyati

02

O'quvchiga matn yoki mavzuni tanlash huquqini berish



Muvaffaqiyat hissini yaratish

03

Kichik yutuqlarni e'tirof etish va rag'batlantirish



Raqamli resurslar

04

Raqamli va interaktiv resurslardan foydalanish orqali o'qishga jalb etish



Ijtimoiy muhit

05

Guruhda o'qish, muhokama va fikr almashish. O'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy munosabati motivatsiyani kuchaytiradi.

XULOSA

Soʻzlarni tanib olish

1

Eng kuchli boshlangʻich omil

Soʻz maʼnosini
integratsiya qilish

2

Chuqur tushunish belgisi

Oʻqish strategiyalari

3

Natijani mustahkamlovchi
mexanizm

Motivatsiya

4

Butun jarayonni harakatga
keltiruvchi kuch

** Agar ushbu omillar tizimli ravishda rivojlantirilmasa, PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishish qiyin boʻladi.*

Ajoyib sakkizoyoq topshirig'i

Maqsad: Axborot olish va undan foydalanish

Tushunish jarayoni: To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish

1. Maqolaga ko'ra, sakkizoyoqlar haqidagi qaysi ma'lumotlar to'g'ri?

To'g'ri kelgan barcha javoblarni belgilang.

Ularning tanalari yumaloq bo'ladi - - - - - ☐

Ularning sakkizta uzun qo'llari bo'ladi - - - - - ☐

Ular faqat okeanning sovuq joylarida yashaydilar - - - - - ☐

Ular qisqichbaqalarni va mayda baliqlarni yeyishni yoqtiradilar ☐

Ular yemishlarini og'izlarida tutadilar. - - - - - ☐

Matndan parcha

Sakkizoyoqlar tanalari yumaloq shaklda bo'lib, bo'rtib chiqqan katta ko'zlari va sakkizta uzun qo'llari bo'lgan dengiz jonzorlaridir. Ularning qo'llari juda baquvvat bo'lib, ularda bir qator kuchli so'rg'ichlar joylashgan bo'ladi. Sakkizoyoqlar dunyoning barcha okeanlarida yashaydi, ayniqsa, ular tropik iqlimdagi iliq suvlarda yashashni yoqtiradilar. Ular odatda sevimli ozuqalarini topishlari mumkin bo'lgan okean tubida qolishadi. Ular dengiz qisqichbaqalari, krevetka qisqichbaqalari va mayda baliqlar bilan oziqlanishni yoqtirishadi. Ular o'z o'ljalarini so'rg'ichlari bilan tutib olishgandan keyin ozuqani og'izlariga soladilar.

Maqsad: Axborot olish va undan foydalanish

Tushunish jarayoni: To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish

1. Maqolaga ko'ra, sakkizoyoqlar haqidagi qaysi ma'lumotlar to'g'ri?

To'g'ri kelgan barcha javoblarni belgilang.

- Ularning tanalari yumaloq bo'ladi - - - - - ☒
- Ularning sakkizta uzun qo'llari bo'ladi - - - - - ☒
- Ular faqat okeanning sovuq joylarida yashaydilar - - - - - ☐
- Ular qisqichbaqalarni va mayda baliqlarni yeyishni yoqtiradilar ☒
- Ular yemishlarini og'izlarida tutadilar. - - - - - ☐

Matndan parcha

Sakkizoyoqlar tanalari yumaloq shaklda bo'lib, bo'rtib chiqqan katta ko'zlari va sakkizta uzun qo'llari bo'lgan dengiz jonzorlaridir. Ularning qo'llari juda baquvvat bo'lib, ularda bir qator kuchli so'rg'ichlar joylashgan bo'ladi. Sakkizoyoqlar dunyoning barcha okeanlarida yashaydi, ayniqsa, ular tropik iqlimdagi iliq suvlarda yashashni yoqtiradilar. Ular odatda sevimli ozuqalarini topishlari mumkin bo'lgan okean tubida qolishadi. Ular dengiz qisqichbaqalari, krevetka qisqichbaqalari va mayda baliqlar bilan oziqlanishni yoqtirishadi. Ular o'z o'ljalari so'rg'ichlari bilan tutib olishgandan keyin ozuqani og'izlariga soladilar.

Baholash mezonlari

2 – To'liq tushunish

FAQAT quyidagi uchta variantga belgi qo'yiladi:

- Ularning tanalari yumaloq bo'ladi.
- Ularning sakkizta uzun qo'llari bo'ladi.
- Ular qisqichbaqalarni va mayda baliqlarni yeyishni yoqtiradilar.

1 – Qisman tushunish


Yuqorida keltirilgan uchta variant va bitta noto'g'ri variantga belgi qo'yiladi.

YOKI yuqorida keltirilgan uchta variantdan ikkitasiga belgi qo'yiladi va boshqa hech qanday variant bo'lmaydi.

0 – Tushunmaslik

Boshqa har qanday kombinatsiya

1-savol (RP51Z01) bo'yicha o'quvchilarning natijalari



Maqsad: Axborot olish va undan foydalanish

Tushunish jarayoni: Aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratish va ularni ajratib olish

2. Sakkizoyoqlar o'z boshpanalariga eshik yasash uchun nimadan foydalanadilar?

Matndan parcha

Sakkizoyoqlar odatda toshlardan yasalgan boshpanalarida yolg'iz yashaydilar. Ba'zida sakkizoyoqlar boshpanalarida xavfsizlikni ta'minlash uchun yopib qo'yilishi mumkin bo'lgan toshli "eshiklarni" ham quradilar.

Baholash mezoni

1 – Qabul qilinadigan javob

Javobda sakkizoyoqlar eshik yasash uchun toshlardan foydalanishini tushunish ko'rsatiladi.


Misollar:

- Ular toshlardan foydalanadi
- Toshlar

0 – Qabul qilinmaydigan javob

Javobda sakkizoyoqlar toshlardan foydalanishi aytilmaydi. U noaniq, matnga aloqador emas yoki savoldagi so'zlar takrorlangan bo'lishi mumkin.

2-savol (RP51Z02) bo'yicha o'quvchilarning natijalari





E'tiboringiz uchun rahmat!

